

MASSAGETLARNING IJTIMOYIY KELIB CHIQISHIGA DOIR BA’ZI  
MUNOZARALAR TAHLILI

Matnazarova M

*Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** *Ko’chmanchi qabilalar yozma manbalarda va tadqiqotchilar tomonidan umumiy nom ostida sak-massagetlar deb nomlangan. Maqolada ko’chmanchi massaget qabillarining kelib chiqishiga doir mulohazalar yozma hamda moddiy manbalar asosida ko’rib chiqildi.*

**Kalit so’zlar:** *mozor, qo’rg’on, saka-tigraxauda, massaget, ko’manchi qabilalar.*

**Аннотация.** *Кочевые племена в письменных источниках и исследователями назывались сак-массагетами под общим названием. В статье рассмотрены мнения о происхождении кочевых массагетов, основанные на письменных и материальных источниках.*

**Ключевые слова:** *могила, курган, сака-тиграхауда, массагет, кочевые племена.*

**Abstract.** *The nomadic tribes in written sources and by researchers were called Sak-Massagets under the general name. The article discusses opinions about the origin of the nomadic Massagets, based on written and material sources.*

**Key words:** *grave, mound, Saka-Tigrahauda, Massaget, nomadic tribes.*

Yevroosiyo dashtlarida ko’chib yurgan ko’chmanchi qabilalar yozma manbalarda va tadqiqotchilar tomonidan umumiy nom ostida sak-massagetlar deb nomlangan. Ular deyarli bir xil ijtimoiy turmush sharoitida yashashgan bo’lsalarda, moddiy madaniyatlari bir biridan tubdan farq qiladi. Yozma manbalarda ham turli nomlar bilan yozib qoldirilgan. Bu esa, ko’chmanchi qabilalarning tarkibi turlicha bo’lganligini va davrlar o’tib turmush tarzida o’zgarishlar bo’lganligi bilan izohlash mumkin.

Ko’pchilik tadqiqotchilar saka-tigraxaudalarni- massagetlar deb hisoblashadi. Keyingi davrlarda ularning lokalizatsiyasi bo’yicha ham ikki xil qarash vujudga kelgan:

1. O’rta Osiyoning g’arbiy hududlari
2. O’rta Osiyoning sharqiy hududlari.

XIX asr oxirlarida rus sharqshunosi V.V.Grigorev tomonidan saklarning lokalizatsiyasi tadqiq qilinganda, “cho’qqi qalpoqli” saklarni O’rta Osiyoning sharqidagi tog’-cho’l hududlariga joylashtirgan<sup>9</sup>. Keyinchalik bu g’oya K.V.Trever va S.P.Tolstov<sup>10</sup> tomonidan ham qo’llab quvvatlangan. XX asrning 60-70 yillarida Qozoqistonning

<sup>9</sup> Григорьев В.В. О скифском народе саков. СПб.: Типогр. Импер. Акад. наук, 1871.51.52

<sup>10</sup> Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1948 243



Olmaota shahridan 50 km. sharqda, Issiq daryo bo'yida joylashgan Issiq mozor-qo'rg'ondan saklar shahzodasi (oltin odam)ning topilishi natijasida bu g'oya yanada rivojlantirildi<sup>11</sup>. Uning bosh qiyimi cho'qqi qalpoqli bo'lib, oltin bilan bezatilgan edi. K.A.Akisev bu topilmani Bexistun va Persopoldagi saklarning tasviri bilan solishtirgan<sup>12</sup>. Ular o'rtasidagi o'xshashliklarni ko'rsatgan.

Tadqiqotchilarning aksariati, Bexistun qoya toshida tasvirlangan cho'qqi qalpoqli Skunxani Kaspiy-Orol xududlariga joylashtirib, ularni massagetlar tarkibiga qo'shishgan<sup>13</sup>. Bu g'oyani ular Geradot ma'lumotida berilgan Akes daryosi asosida asoslab, Kir II ning massagetlar malikasi To'maris bilan bo'lgan jangini va shu yo'ldan Doro I ham borib, saklarni o'ziga bo'ysundirgan degan g'oyani ilgari surgan.<sup>14</sup> Axamaniylar tomonidan tashkil qilingan XV–satraplik tarkibida “saklar va kaspiylar”ni birgalikda keltirishi ham bu g'oyani asoslaydi.

Strabon “Massagetlarning bir qismi tog'larda, bir qismi tekisliklarda, uchinchi bir qismi daryolar tug'diradigan botqoqlarda, to'rtinchi bir qismi botqoqlikdagi orollarda yashashadi....., Kumush ularda yo'q, temir, mis va tilla serobdir. Orollarda yashovchi massagetlar, ekin tikinlari bo'lmaganidan ildiz va meva-cheva yeyishadi, ularni siqib sharbatini ichadilar. Botqoqlikdagilari baliq, tog'da yashovchilari yovvoyi meva daraxtlari va go'sht, tekislikda yashovchilari, yerlari bo'la turib unga ishlaymaydi, chorva, baliq go'shti bilan oziqlanadi” degan ma'lumotni yozib qoldirgan<sup>15</sup>. Bundan ham xulosa qilishimiz mumkinki, massagetlar ko'chmanchi qabila bo'lishgan. Ko'chmanchilik hayoti asosiga qurilgan Quvisoy madaniyati aholisi aslida sak-massaget qabilalari bo'lib, ular quyi Amudaryo va Orol bo'ylarining tub joyli aholisi bo'lgan<sup>16</sup>.

T.A.Trofimova Sirdaryoning quyi oqimlaridagi saklarning mozor – qo'rg'onlari, ya'ni Chirik Rabot, Bobish mulla va boshqalardagi mayitlarni tekshirganda ular antropologik jihatdan bronza davriga oid Andronova va Tozabog'yob madaniyatlardagi odamlarga o'xshashligi aniqlangan. Quyi Sirdaryo bo'yidagi odamlarda andronova va O'rta Osiyoning ikki daryo oralig'i tipi o'rtasida oraliq masofani egallagan.

---

<sup>11</sup> Иванов С.С. К вопросу об этнической идентификации древних кочевников притяньшанья в сакский период. / Международная научная конференция, посвященная 110-летию со дня рождения выдающегося ученого-этнолога С.М. Абрамзона «Комплексный подход в изучении природы, общества и человека» - Бешкек. 2015. – С.116.

<sup>12</sup> Акишев К.А. Курган Иссык. Искусство саков Казахстана. М.: Искусство, 1978. 43-44

<sup>13</sup> Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. М.: Наука, 1985. 53-54; Литвинский Б.А. Древние кочевники “крыши мира”. -М.: 1972, -С. 172–174; В.Н.Ягодин Саки тиграхауда – массагеты Арало-Каспия.

<sup>14</sup> Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. Л.: Наука, 1968 с. 51-66; Пьянков И.В. К вопросу о маршруте похода Кира на массагетов // Вестник древней истории. 1964. № 3126-129).

<sup>15</sup> Страбон XI, 6, 2; 8, 6-7

<sup>16</sup> Вишневецкая О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до н.э. Москва. 1973.; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. Москва. 1962. стр. 77-87.



Janadaryo, Kuandaryo, O'rta Sirdaryo havzasida yashagan qabilalar yarim o'troq tarzda hayot kechirgan. Ulardan moddiy yodgorlik sifatida mo'ror-qo'rg'onlardan tashqari mustahqam mudofaaga ega bo'lgan qal'alar ham saqlanib qolgan. Ularning turmush tarzi qadimgi Xorazm xo'jalik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy ta'siri ostida rivojlangan. Bu Chirik Rabot, Bobishmulla 1, Balandi 1, Jetiasar, Altinasar va boshqa yodgorliklarda aks etgan.

Yozma manbalarda keltirilgan skif qabilalari mil. avv. VII-III asrlarda Shimoliy Qora dengiz bo'ylarida, ya'ni Dnestr, Dnepr va Don daryolari quyi havzalarida, Azov dengizi atroflarida va Qrim yarim orolida yashaganlar<sup>17</sup>. Ular asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ularning asosiy belgisi "hayvoniy uslub"da buyumlarni yaratganlar.

Massaget qabilalari sak qabilalarning uyushmasi bo'lib, mil.avv. VI asrda Orol-Kaspiy hududlarida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar (1- jadval). Massagetlar faqat ko'chmanchi qabilalar ittifoqi bo'lgan bo'lishi mumkin. Yozma manbalarda turli qabilalarning nomlarining kelishi davriy xususiyat kasb etib, ko'chmanchilar orasida qaysi qabila siyosiy jihatdan yuqori mavkeni egallasa shu qabila to'g'risida yozma manbalarda yozib qoldirilgan bo'lish ehtimoli katta.

#### FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Акишев К.А. Курган Иссык. Искусство саков Казахстана. М.: Искусство, 1978. 43 -44
2. Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. М.: Наука, 1985. 53-54. Григорьев В.В. О скифском народе саков. СПб.: Типогр. Импер. Акад. наук, 1871.51.52
3. Иванов С.С. К вопросу об этнической идентификации древних кочевников притяньшанья в сакский период./ Международная научная конференция, посвященная 110-летию со дня рождения выдающегося ученого-этнолога С.М. Абрамзона «Комплексный подход в изучении природы, общества и человека» - Бешкек. 2015. – С.116.
4. Литвинский Б.А. Древние кочевники “крыши мира”. -М.: 1972, -С. 172–174
5. Пьянков И.В. К вопросу о маршруте похода Кира на массагетов // Вестник древней истории. 1964. № 3126-129].
6. Степи европейской части СССР в скифо-сарматское время. – Москва, 1989. – С. 33-80.
7. Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. Л.: Наука, 1968 с. 51-66.

<sup>17</sup> Степи европейской части СССР в скифо-сарматское время. – Москва, 1989. – С. 33-80.



8. Страбон XI, 6, 2; 8, 6-7.
9. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1948.
10. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. Москва. 1962. стр. 77-87.
11. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до н.э. Москва. 1973.
12. В.Н.Ягодин Саки тиграхауда – массагеты Арало-Каспия.

